

танлов имкониятини кенгайтиради;

- фойдаланишда қулайлик (соддалик)ни ва тезликни оширади;
- харажатларни қисқартиради ва вақтни тежайди;
- фаолияти билан боғлиқ рискларни бошқаришда ёрдам беради;
- турли навбатларда турмасдан хизматлардан фойдаланади;
- фаолияти билан боғлиқ ҳолат ва воқеалар бўйича мълумотларга бериб боради.

Жамият учун:

- банк тизимининг ривожланишига ва глобаллашувига ёрдам беради;
- банкларнинг замонавий банк тизимига интеграциялашувини тезлаштиради;
- хизматларни амалга оширишда инсон омилини ва турли тўсиқларни камайтиради;
- кишиларга замонавий хизматлар орқали берилган имкониятлар асосий мақсад бўлган жамият тараққиётига, инсон фаровонлигига олиб келади.

#### **Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Akhtar, S., Irfan, M., Sarwar, A. Asma, Rashid, Q.U.A. (2019). *Factors influencing individuals' intention to adopt mobile banking in China and Pakistan: The moderating role of cultural values*. Journal of Public Affairs, 19(1), Article e1884. <https://doi.org/10.1002/pa.1884>
2. Booz-Allen and Hamilton (1997). *Corporate Internet banking: A global study of potential*, [http://www.bah.com/viewpoints/internet\\_banking.htm](http://www.bah.com/viewpoints/internet_banking.htm)
3. Chan, S. C. (2001). *Understanding adoption and continual usage behaviour towards internet Banking services in Hong Kong* (Master's thesis). Lingnan University.
4. Chloe Wang, (2015). "Financial Technology Booms as Digital Wave Hits Banks, Insurance Firms," Channel News Asia: <http://www.channelnewsasia.com/news/business/singapore/financial-technology/1875644.html>. See also Gareth Lodge, Hua Zhang, and Jacob Jegher, "IT Spending in Banking: A Global Perspective," Celent (2015): <http://celent.com/reports/it-spending-banking-global-perspective-2>.
5. David Gyori, (2016). "FinTech Is the Future Itself" in *The FinTech Book*, edited by Susanne Chishti and János Barberis (Chichester, UK: John Wiley & Sons, 2016): 265.
6. Elizabeth Daniel, (1999). "Provision of electronic banking in the UK and the Republic of Ireland", *International Journal of Bank Marketing*.
7. Heikki Karjaluoto (2002), *Electronic banking in Finland: consumer beliefs, attitudes, intentions, and behaviors* pp.15
8. Hosseini, M., Shajari, S., and Akbarabadi, M. (2020). *Identifying multi-channel value co-creator groups in the banking industry*. J. Retail. Consum. Serv. (in press). doi: 10.1016/j.jretconser.2020.102312
9. Jayawardhena, C. and Foley, P. (2000). *Changes in the Banking Sector—The Case of Internet Banking in the UK*. Internet Research, 10, 19-31. <https://doi.org/10.1108/10662240010312048>
10. Malaquias, R. F., and Hwang, Y. (2019). *Mobile banking use: a comparative study with Brazilian and U.S. participants*. Int. J. Inf. Manag. 44, 132–140. doi: 10.1016/j.ijinfomgt.2018.10.004
11. Mamadiyarov, Z. (2021). *ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING REMOTE BANKING SERVICES IN THE PROCESS OF BANK TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN*. Financial and Credit Activity: Problems of Theory and Practice, 1(36), 14–26. <https://doi.org/10.18371/fcaptp.v1i36.227607>
12. Mamadiyarov, Z. (2020). *The Mobile banking apps and their development in commercial banks of Uzbekistan*. Архив научных исследований, 1(25). извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2590>
13. Marc Hochstein, (2015). "Fintech (the Word, That Is) Evolves," *American Banker* (2015): <https://www.americanbanker.com/opinion/fintech-the-word-that-is-evolves>.
14. Milind Sathye, (1999) "Adoption of Internet banking by Australian consumers: an empirical investigation", *International Journal of Bank Marketing*.
15. Nehmzow C. (1997). "The Internet will shake banking Medieval Foundations", *International Journal of Bank Marketing*
16. Schreieck, M., and Wiesche, M. (2017). "How established companies leverage it platforms for value co-creation – insights from banking," in *Proceedings of the 25th European Conference on Information Systems*, Guimarães.
17. Wah, L., (1999), "Banking on the Internet", *American Management Association* 88 (11), pp. 44-48
18. Zhang, T., Lu, C., and Kizildag, M. (2018). Banking "on-the-go": examining customers' adoption of mobile banking services. Int. J. Qual. Serv. Sci. 10, 279–295. doi: 10.1108/IJQSS-07-2017-0067
19. Zhang, J., Luximon, Y., Song, Y. (2019). The role of consumers' perceived security, perceived control, interface design features, and conscientiousness in continuous use of mobile payment services. Sustainability, 11(23), 6843.
20. <https://blog.griddynamics.com/redefining-the-customer-experience-in-consumer-banking/>



#### **TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI**

**Togayev Salim Sobirovich -**  
Samarqand iqtisodiyot va servis  
instituti tayanch doktoranti

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss1/a6](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss1/a6)

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar va ilg'or xorij tajribasi tahlil qilingan hamda uning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladigan tavsiyalar, xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, moliyaviy barqarorlik, daromad, soffoya, aktiv, rentabellik, zaxira, kapital, passiv.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ЕГО ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Тогаев Салим Собирович -**

*Базовый докторант Самаркандинского  
института экономики и сервиса*

**Аннотация:** В статье анализируются научно-теоретические взгляды и передовой мировой опыт в области обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков, а также даются рекомендации и выводы, служащие обоснованию ее практической значимости.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, финансовая устойчивость, доход, чистая прибыль, активы, рентабельность, резервы, капитал, пассив.

## FOREIGN EXPERIENCE AND ITS PRACTICAL SIGNIFICANCE IN FINANCIAL SUSTAINABILITY OF COMMERCIAL BANKS

**Togayev Salim Sobirovich -**

*Basic doctoral student of Samarkand  
Institute of Economics and Service*

**Abstract:** The article analyzes scientific and theoretical views and advanced world experience in the field of ensuring the financial stability of commercial banks, as well as recommendations and conclusions that serve to substantiate its practical significance.

**Keywords:** commercial bank, financial stability, income, net profit, assets, profitability, reserves, capital, liabilities.

**Kirish.** 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari dan biri sifatida belgilangan[1]. Bu esa, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda Xalqaro valyuta fondi tomonidan jami 39 ta asosiy va tavsiyaviy tusdagi Moliyaviy barqarorlik (Financial Soundness Indicators - FSI) ko'rsatkichlari chop etilgan bo'lib, ularning 12 tasi asosiy (asosan banklar uchun), 27 tasi tavsiyaviy (asosan boshqa moliyaviy tashkilotlar uchun) tusdagi indikatorlar hisoblanadi[15]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham tijorat banklarimiz moliyaviy barqarorligi bo'yicha Xalqaro valyuta fondi tomonidan tavsiya etilgan 12 ta asosiy ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni e'lon qilib bormoqda.

Ayni vaqtida, respublikamiz tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning (tijorat banklarda aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi, davlat tijorat banklarida kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi dan yuqori ekanligi va boshqalar) mavjudligini e'tirof etish joiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Prof O.Lavrushinining fikriga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy e'tibor guruhlash va tarkibiy tahvilga qaratilishi lozim, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin[2].

Biz O.Lavrushinining ushbu xulosasiga to'liq qo'shilamiz va qo'shimcha sifatida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda qiyosiy tahvil usuli ham muhim o'r'in tutadi. Bunda qiyosiy tahvilni boshqa banklar bilan amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

N.Semenova, I.Ivanova, A.Vasilkinlar "Barqarorlik – bu bankning butun rivojlanish davri davomidagi holatining sifat ko'rsatkichi bo'lib, tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan omillari sharoitida muvozanatda bo'lish va o'ziga xos funksiyalarini uzluksiz bajara olishi imkoniyati" degan xulosaga kelganlar[3].

AQShlik iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o'rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta'minlashga qaratilishi lozim, deb hisoblaydi [6].

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiylajmida foizli daromadlarining salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak [7]. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lsada, ekspertlarning tavsiyasiga yaqinlashtirish lozim.

V.Usoskinning xulosasiga ko'ra, tijorat bankini haddan ziyyod kapitallashib ketishi, o'z mablag'lariga bo'lgan ehtiyojga nisbatan ortiqcha aksiyalarni muomalaga chiqarish tijorat banking moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki, kapital moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi, undan ko'ra omonatchilarning mablag'larini jalb qilish arzon va qulay hisoblanadi [8].

V.Usoskinning ushbu fikri O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, O'zbekiston banklari passivlarining umumiylajmida kapital nisbatan yuqori salmoqni egalaydi. Masalan, 2021 yilning 1 noyabr holatiga ko'ra, respublikamiz tijorat banklari passivlarining umumiylajmida reguliyativ kapitalning salmog'i 16,7 foizni tashkil etdi [14].

A.Mian va A.Safining xulosasiga ko'ra, uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlarni firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklanganligi bois ularga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimoli yuqoridir[4].

Dando va Skodberg tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, reytinglar o'rtasidagi migratsiya matritsalari asosida ekstrapolatsiyalarni baholash yuqori reytingli kredit portfellari uchun, shu jumladan, past defoltli kredit portfellari uchun defolt maqomiga o'tishni aniq baholash imkonini beradi [5].

M.Gorsky, E.Reshulskayalar kengaytirilgan ma'noda "moliyaviy barqarorlik" - bankning to'plangan likvidligi va o'z kapitali bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy holatinining xarakteristikasi, makroiqtisodiy sharoitlarda kreditlash va investitsiya faoliyati sohasida beqarorlik va tashqi (tartibga soluvchi organ tomonidan belgilanadigan) va ichki (bankning kredit strategiyasi bilan belgilanadigan) standartlarni hisobga olgan holda moliyaviy natijaning saqlanishi va o'sishini ta'minlaydi[11] deya ta'kidlaydi.


K.Kumar va A.Prakashlar "banklar uchun eng ustuvor bo'lgan barqarorlik masalalari moliyaviy quylilik, moliyaviy savodxonlik va energiya samardorligi kabi biznes operatsiyalari bilan bevosita bog'liq va banklar muhim jihatlarga emas, balki bank faoliyatida barqarorlikning ijtimoiy jihatini hal qilishga ko'proq e'tibor qaratmoqda"[10] deb o'z fikrlarini bildirib o'tgan.

O.Sattarov "bank tizimi barqarorligi-bu Markaziy va tijorat banklari faoliyati davomida o'z funksiyalarini to'laqonli bajara olishini ta'minlagan holda, rivojlanishga intilishdir" degan xulosaga kelgan[12].

Yo. Muxmudaliyeva "bank tizimi barqarorligi-bu Markaziy va tijorat banklari faoliyati davomida o'z funksiyalarini to'laqonli bajara olishini ta'minlagan holda, rivojlanishga intilishdir" degan fikrga kelgan[13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning maqsadi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi o'rganilib, ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Rivojlanayotgan mamlakatlar bank amaliyotida ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash sohasida banklardagi risk-menejment tizimini rivojlantirish, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va likvidligini ta'minlash, tijorat banklari va aktivlarining rentabellik darajalarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.



**1-rasm. Deutsche Bank da (Germaniya) sof foizli daromad va sof foyda miqdori, mln. yevro[19]**


Tijorat banklari foizli daromadlarining umumiylajmida kreditlardan olingen foizli daromadlar salmog'ining yuqori va barqaror bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan taklif etilgan sof foizli spred koefitsiyentini me'yoriy darajasini ta'minlash respublikamiz banklarning kreditlardan olingen foizli daromadlarning barqarorligini baholashda foydalanish, fikrimizcha, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rindiki, Deutsche Bank da sof foizli daromad miqdori 2019 yilda 2018 yilga nisbatan ko'paygan. Ammo, 2020 yilda sof foizli daromad miqdori 2019 yilga nisbatan

sezilarli darajada kamaygan. Deutsche Bank da sof foyda miqdori 2019 yilda 2018 yilga nisbatan ko'paygan. Ammo, 2020 yilda sof foyda miqdori 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.

Deutsche Bank da 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sof foyda miqdorining kamayganligi mazkur davrda sof foizli daromad miqdorining kamayganligi bilan izohlanadi va ushbu holat bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Bank of America banking moliyaviy barqarorligiga baho berish maqsadida reguliyativ kapitalning passivlari hajmidagi salmog'i ko'rsatkichini tahlil qilamiz.



**2-rasm. Bank of America ning passivlari, regulyativ kapitali va uning passivlar hajmidagi salmog'i[16], foizda**

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rindiki, 2020 yilda 2018 yilga nisbatan Bank of America banking passivlarining o'sish sur'ati 19,7 foizni tashkil etgani holda, uning reguliyativ kapitalini o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil etgan. Bu esa, moliyaviy barqarorligini ta'minlash ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2-rasmdan ko'rish mumkinki, Bank of Amerika passivlarining umumiylajmida reguliyativ kapitalning salmog'i 2020 yilda 2018 yilga nisbatan

1,7 foizli punktga pasaygan. Bu esa, uning investitsion jozibadorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, reguliyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa, bankning to'lovga qobililik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar muhim o'rinni tutadi.

#### 1-jadval

**Bank of Amerikaning (AQSH) qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining miqdori va darajasi [17]**


	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar miqdori, mlrd. dollar	441	472	684
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i, %	18,7	32,9	24,3

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Bank of Amerika tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar summasi 2019 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ammo, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 2019 yilga nisbatan kamaygan.

1-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, Benk of Amerika aktivlarining tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, Benk of Amerikaning likvidlitigini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

Bank of America bankining pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2020 yilda 2018 yilga nisbatan 6,6 foizli

punktga oshgan. Bu esa, ushbu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.



**3-rasm. Bank of Americaning pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlari dinamikasi va darajasi[17], foizda**

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindiki, Bank of America bankining pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarining miqdori 2020 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori darajada oshgan hamda

2018-2020 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, sezilarli darajada yuqori bo'lgan o'sish sur'ati bo'lib, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

## 2-jadval

**Germaniya bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari-FSI  
(Financial Soundness Indicators)[20]**

Asosiy ko'rsatkichlar, foizda Indicator (in %)	01.01.17	01.01.18	01.01.19	01.01.20	01.01.21
Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati-Regulatory capital to risk-weighted assets	18.79%	19.38%	18.90%	18.58%	19.19%
I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati-Regulatory Tier 1 capital to risk-weighted	16.28%	16.93%	16.62%	16.54%	17.15%
Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar/jami kapital-Nonperforming loans net of provisions to capital	14.68%	11.89%	9.06%	6.78%	-
Harakatsiz kreditlar/jami kreditlar miqdori-Nonperforming loans to total gross loans	1.71%	1.50%	1.24%	1.05%	-
Aktivlar rentabelligi-Return on assets	0.37%	0.37%	0.32%	0.26%	0,22%
Kapital rentabelligi-Return on equity	6.57%	6.32%	5.08%	4.13%	3,81%
Foizli marja/yalpi daromad-Interest margin to gross income	71.21%	69.55%	72.32%	69.47%	67,34%
Foizsiz harajatlar/yalpi daromad-Noninterest expenses to gross income	69.26%	71.91%	73.09%	75.99%	72,26%
Likvid aktivlar/jami aktivlar-Liquid assets to total assets	44.84%	45.93%	12.69%	19.72%	25,63%
Likvid aktivlar/qisqa muddatli majburiyatlar-Liquid assets to short-term liabilities	146.62 %	51.25%	151.70 %	161.25 %	169,64 %
Jami kapital/jami aktivlar-Capital to assets ratio	5.98%	6.33%	6.47%	6.31%	5,93%

Germaniya bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'satkichlarini mamlakatimiz bank tizimining ushbu ko'satkichlariga nisbatan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, harakatsiz kreditlarni jami kreditlar miqdoriga nisbati va likvid aktivlarni jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichlari darajasi deyarli bir xil tashkil etgan. Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlarni jami kapitalga nisbati yuqori, aktivlar rentabelligi past, kapital rentabelligi past,

foizsiz harajatlarni yalpi daromadga nisbati baland, jami kapitalni jami aktivlarga nisbati past ekanligi banklarning moliyaviy barqarorligi ta'minlash jihatdan salbiy holat hisoblanadi. Foizli marjani yalpi daromadga nisbati baland, likvid aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlariga nisbati baland ekanligi banklarning moliyaviy barqarorligi ta'minlash jihatdan ijobiy holat hisoblanadi.

**Xulosalar va takliflar.** Taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklarida sof foizli daromadlarning barqaror darajasini ta'minlanganligi moliyaviy barqarorlik darajasini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqaror darajasini ta'minlash transmilliy banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida tijorat banklari qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali joriy likvidlilagini ta'minlaydi va daromadlari miqdorini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilg'or xorij tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Rivojlanayotgan davlatlarda moliya bozorlari rivojlanmaganligi, Markaziy bankning monetar siyosatida noaniqliklarning mavjudligi, soliq siyosatini takomillashmaganligi va boshqa omillar xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bu holatlar, pirovard natijada, xo'jalik sub'ektlarining pul oqimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida tijorat banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlar va jamg'arma depozitlari qoldiqlarining nobarqa-

rorligi kuchayadi. Shu sababli, fikrimizcha, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida talab qilib olinadigan depozitlar, yuridik shaxslarning jamg'arma depozitlarining qoldiqlariga nisbatan tijorat banklarining likvidli aktivlarini kamida 50 foiz miqdorida saqlab turishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Transmilliy banklarning sof foizli daromadning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi yuqori va barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasidagi tajribasi O'zbekiston tijorat banklari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

3. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak. Shuni inobatga olib, mamlakatimiz tijorat banklarida ham foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlar dan olingan foizli daromadlar salmog'in yuqori va barqaror bo'lishini ta'minlash lozim.

#### ***Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i PF-5992-sonli "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi"gi farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – M.: KnoRus, 2008. – S. 251.
3. Semenova N.N., Ivanova I.A., Vasilkina A.A. Otsenka ustoychivosti razvitiya kommercheskogo banka na osnove metoda analiza iyerarxiy. Finansi: teoriya i praktika/Finance: Theory and Practice. 2021;25(4):121-135. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2021-25-4-121-135>
4. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726. .
5. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2-3). – pp. 423-444.
6. Edvin Dj. Dolan i dr. Dengi, bankovskoye delo i denejno-kreditnaya politika. – SpB.: "Sankt-Peterburg Orkestr", 1994. – S. 90-93.
7. Maknotin D. Bankovskiye uchrejdeniya v razvivayushixsy stran. Per. s angl. – Vashington: IER, 1994.
8. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravleniye i operatsii. – M.: LENAND, 2019. – S. 97.
9. S.Urazov Ustoychivost bankovskoy sistemi: teoreticheskiye i metodologicheskiye aspekti // Bankovskoye delo. № 12.
10. Kumar, K. and Prakash, A. (2019), "Developing a framework for assessing sustainable banking performance of the Indian banking sector", *Social Responsibility Journal*, Vol. 15 No. 5, pp. 689-709. <https://doi.org/10.1108/SRI-07-2018-0162>.
11. Gorsky M.A., Reshulskaya E.M. Financial stability of a commercial bank: The phenomenon, indicators and assessment methods. Vestnik Altaiskoi akademii ekonomiki i prava = Journal of Altai Academy of Economics and Law. 2020;(3-1):29-39. (In Russ.). DOI: 10.17513/vaael.1012
12. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtis. fanlari doktori ilmiy daraj. olish uchun tayेrl. diss. avtor. – T., 2018.-42 b.
13. Mahmudaliyeva Yo.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. If.n. ilmiy darajasini olish uchun tayेrlangan dissertatsiya. – T., 2001. -22 b.
14. Khalmurzaev, Mansur. "The Role Of Investment Projects In The Economy Of Uzbekistan." International Journal of Progressive Sciences and Technologies 30.1 (2021): 268-272.
15. Togaev Salim Sobirovich. (2021). Topical issues of providing the financial stability of commercial banks. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5482763>.
16. Tijorat banklarining jamlanma balansi. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
17. <https://www.imf.org/external/np/sta/fsi/eng/fsi.htm> Xalqaro valyuta fondi sayti ma'lumotlari.
18. <http://www.bankofamerica.com>. Annual Reports. 2018. 2019. 2020. Concolidated Balance Sheet. Bank of America ma'lumotlari.
19. [www.db.com](http://www.db.com). Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. 2018. 2019. 2020. Concolidated Statement of income. Deutsche Bank ma'lumotlari. <https://www.bundesbank.de/resource/blob/800722/b84ac237b70b1f2b41e2e91c4d80c819/mL/indikatoren-current-data.pdf>. Bundesbankning 2017, 2018, 2019, 2020 va 2021 yillarda ma'lumotlari.